Chet eldan olgan daromadlar bo'yicha ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodlarini takomillashtirish — davlat budget-soliq siyosatini samarali ishlab chiqishning zamonaviy usullari	1039
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
Bank aktivlari portfel samaradorligini oshirishning nazariy va uslubiy asoslari	1046
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich	
Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyati va ESG/yashil moliyalashtirishning ekonometrik modellar asosidagi tahlili	1051
Zoyirov Laziz Subxonovich	
Hudud daromad salohiyatini baholash va rivojlantirishga metodologik yondashuvlar	1059
Qobulov Xotamjon Abdukarimovvich	
Inson kapitali va tijorat banklari raqobatbardoshligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni takomillashtirish	1067
Abduraxmanova Matluba Maxamadaminovna	



INSON KAPITALI VA TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

Abduraxmanova Matluba Maxamadaminovna

i.f.n., prof.

“Bank ishi” kafedrası professori
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
(orcid: 0000-0003-1039-232X)
e mail: m.abdurakhmanova@tsue.uz

Annotatsiya: Maqolada bank tizimida inson kapitali va tijorat banklari raqobatbardoshligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilingan. Unda xodimlarning malakasi, bilim va ko'nikmalari, innovasion fikrlash darajasi hamda korporativ madaniyatning banklar faoliyati samaradorligiga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, inson kapitali rivojlanishi bank xizmatlari sifatini oshirish, raqamli bank xizmatlarini joriy etish va mijozlarga xizmat ko'rsatish samaradorligini ta'minlashda muhim omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. sh va uning raqobatbardoshlikka ta'sirini kuchaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, moliya bozori, tijorat banklari, raqobatbardoshlik, bank xizmatlari, kadrlar salohiyati, innovatsiyalar.

Abstract: The article analyzes the relationship between human capital and the competitiveness of commercial banks in the banking system. The influence of qualifications, knowledge and skills of employees, the level of innovative thinking and corporate culture on the efficiency of banks has been studied. It has also been scientifically proven that the development of human capital is an important factor in improving the quality of banking services, introducing digital banking services and ensuring the efficiency of customer service. To enhance the impact on competitiveness, scientifically based proposals and recommendations have been developed.

Keywords: human capital, financial market, commercial banks, competitiveness, banking services, human resources, innovation.

Аннотация: В статье анализируется взаимосвязь между человеческим капиталом и конкурентоспособностью коммерческих банков в банковской системе. Изучается влияние квалификации, знаний и навыков сотрудников, уровня инновационного мышления и корпоративной культуры на эффективность банков. Также научно обосновывается, что развитие человеческого капитала является важным фактором повышения качества банковских услуг, внедрения цифровых банковских услуг и обеспечения эффективности обслуживания клиентов. Разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации для усиления его влияния на конкурентоспособность.

Ключевые слова: человеческий капитал, финансовый рынок, коммерческие банки, конкурентоспособность, банковские услуги, человеческие ресурсы, инновации.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda banklar raqobatbardoshligi faqat moliyaviy resurslar hajmi yoki texnologiyalar darajasi bilan emas, balki inson kapitali sifati, xodimlarning kasbiy kompetensiyasi, innovasion fikrlashi va korporativ madaniyati bilan ham belgilanadi.

Bank tizimida inson kapitali xodimlarning bilim darajasi, kasbiy tayyorgarligi va innovasion qobiliyati orqali bank xizmatlari sifatini oshirish, yangi moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish va raqamli texnologiyalarni joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi sharoitda raqamli bank xizmatlarini joriy etish, fintex texnologiyalari bilan integratsiyalashuv va bank ekotizimlarini shakllantirish yuqori malakali, innovasion fikrlaydigan va raqamli ko'nikmalarga ega kadrlarni talab etadi. Bu esa bank tizimida inson kapitalini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishni strategik vazifalardan biri sifatida belgilaydi [13; 15].

O'zbekistonda ham bank tizimini modernizatsiya qilish va moliya bozorini rivojlantirish doirasida inson kapitalini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, bankka kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va raqamli ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan institusional chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon bank xizmatlari sifatini oshirish, raqamli moliyaviy xizmatlarni joriy etish va banklar raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda [2; 18].

Shu bilan birga, inson kapitali va banklar raqobatbardoshligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks tahlil qilish, inson kapitali rivojlanishining bank xizmatlari samaradorligiga ta'sirini baholash va mazkur sohada ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inson kapitali va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda keng tadqiq qilingan. Xususan, iqtisodchi olim Gari Bekker inson kapitalini bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi sifatida baholab, uning iqtisodiy o'sish va tashkilotlar samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning ta'kidlashicha, inson kapitaliga kiritilgan investisiyalar mehnat unumdorligini oshirish orqali tashkilotlar raqobatbardoshligini ta'minlaydi [3].

Inson kapitali nazariyasini rivojlantirgan olimlardan yana biri Teodor Shuls hisoblanadi. U inson kapitaliga investisiyalarni iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida qarab, ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va sog'liqni saqlashga sarflangan xarajatlar mehnat samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy natijalarni yaxshilashini ta'kidlaydi [4].

Zamonaviy sharoitda inson kapitali va innovasion rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilgan olimlardan biri Erik Hanushek hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida inson kapitalining sifat jihatdan rivojlanishi, xususan ta'lim sifati va kasbiy kompetensiyalar darajasi iqtisodiy o'sish va tashkilotlar samaradorligiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslangan [5].

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda ham inson kapitali va mehnat resurslarini rivojlantirish masalalari bir qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, iqtisodchi olim Q.X. Abduraxmonov inson kapitalini iqtisodiy taraqqiyotning strategik resursi sifatida baholab, uni rivojlantirish mehnat bozori samaradorligini oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi [8].

Shu bilan birga, iqtisodchi olim N.M. Mahmudov inson kapitali rivojlanishi bank va moliya sektorida xizmatlar sifatini oshirish va boshqaruv samaradorligini ta'minlashda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, yuqori malakali kadrlar bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish va innovasion moliyaviy mahsulotlarni joriy etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi [9].

Moliya bozori va bank xizmatlari sohasida kadrlar salohiyatini tadqiq qilgan mahalliy olimlardan yana biri D.T. Toshmurodov hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida inson kapitali banklar raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil sifatida baholanib, xodimlarning malakasi va professional kompetensiyalari bank xizmatlari samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan [10].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, inson kapitali iqtisodiy rivojlanish va tashkilotlar raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda inson kapitali va tijorat banklari raqobatbardoshligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ayrim jihatlari yetarlicha kompleks o'rganilmagan. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot doirasida inson kapitali rivojlanishining banklar raqobatbardoshligiga ta'sirini chuqur tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning nazariy va metodologik asosini inson kapitali nazariyasi, moliya bozorida banklar raqobatbardoshligini ta'minlashga oid iqtisodiy konsepsiyalar va raqamli iqtisodiyot sharoitida kadrlar salohiyatini rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi.



Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil usuli orqali inson kapitali rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar bank tizimi tajribasi va milliy bank tizimi ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi. Bu inson kapitali va banklar samaradorligi o'rtasidagi institusional bog'liqlikni aniqlash imkonini berdi.

Shu bilan birga, tadqiqotda statistik tahlil usulidan ham foydalanildi. Ushbu usul yordamida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Davlat statistika qo'mitasi hamda tijorat banklarining rasmiy hisobotlari asosida bank xodimlarining soni, ularning malaka darajasi, mehnat unumdorligi va bank xizmatlari samaradorligi ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Bu inson kapitali rivojlanishining banklar moliyaviy natijalariga ta'sirini empirik jihatdan baholash imkonini berdi.

Tadqiqotda korrelyasion va regression tahlil elementlaridan ham foydalanildi. Ushbu usullar orqali inson kapitali ko'rsatkichlari (xodimlarning malaka darajasi, o'qitish xarajatlari, kadrlar almashinuvi darajasi) va banklar raqobatbardoshligini ifodalovchi ko'rsatkichlar (ROA, ROE, xizmatlar hajmi, mijozlar soni) o'rtasidagi statistik bog'liqlik baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliya bozorida raqobat muhitining institusional jihatdan murakkablashib borishi natijasida zamonaviy bank tizimida inson kapitali an'anaviy mehnat resursi doirasidan chiqib, bilimlar, kasbiy kompetensiyalar, raqamli ko'nikmalar, innovasion fikrlash salohiyati va korporativ madaniyat elementlarini o'z ichiga olgan kompleks iqtisodiy aktiv sifatida qaralmoqda.

Shu bilan birga, inson kapitali sifatining yuqori darajada rivojlanganligi bank xizmatlari diversifikatsiyasi, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatining oshishi, raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish va operasion xarajatlarni optimallashtirish orqali banklar moliyaviy natijalariga bevosita va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali tarkibida raqamli kompetensiyalar, ma'lumotlar bilan ishlash qobiliyati va innovasion yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda, bu esa banklarning bozordagi raqobat pozitsiyalarini mustahkamlashda hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Shu nuqtai nazardan, bank tizimida inson resurslari rivojlanishining institusional xususiyatlari, sifat ko'rsatkichlari va ularning banklar raqobatbardoshligiga ta'sirini kompleks iqtisodiy tahlil qilish ilmiy jihatdan dolzarb vazifa hisoblanadi. Bunday tahlil inson kapitali rivojlanishining bank xizmatlari samaradorligiga ta'sir mexanizmlarini aniqlash, raqobat ustunliklarini shakllantirish omillarini baholash hamda mazkur sohada ilmiy asoslangan strategik qarorlar ishlab chiqish imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston bank tizimida inson resurslari rivojlanish ko'rsatkichlari

Yil	Bank xodimlari soni (ming nafar)	Oliy ma'lumotli xodimlar ulushi (%)	O'rtacha ish staji (yil)	Kadrlar alma- shinuvi (%)
2020	78	68	6.2	14
2021	82	70	6.5	13
2022	87	73	6.9	12
2023	92	76	7.3	11
2024	97	79	7.8	10

1-jadval tahlili inson kapitali sifat ko'rsatkichlari bank tizimida izchil va barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Xususan, raqamli ko'nikmalarga ega xodimlar ulushining sezilarli darajada ortishi banklarda raqamli transformatsiya jarayonlari aynan inson kapitali orqali amalga oshirilayotganini anglatadi. Bu holat bank xizmatlarini raqamlashtirish, fintex yechimlarni joriy etish va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarida inson kapitali hal qiluvchi resursga aylanayotganini tasdiqlaydi. [18; 20]

Shu bilan birga, kadrlar almashinuvi darajasining pasayishi va ish stajining ortishi bank tizimida institusional barqarorlikning mustahkamlanayotganini, tashkilot ichida bilimlar transferi va korporativ tajribaning saqlanishini ta'minlayotganini ko'rsatadi. Bu esa banklarda uzoq muddatli strategik maqsadlarni amalga oshirish, xizmatlar sifatini barqaror ravishda oshirish va mijozlar bilan munosabatlarni mustahkamlash uchun muhim asos yaratadi.

Biroq inson kapitali sifatining o'sishi tabiiy ravishda emas, balki maqsadli investision siyosat natijasida shakllanishini alohida ta'kidlash lozim. Ya'ni, xodimlarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish, ularni qayta tayyorlash va raqamli ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan investisiyalar inson kapitali sifatining asosiy drayveri hisoblanadi.

Aynan shu bois, keyingi bosqichda tijorat banklarida inson kapitaliga yo'naltirilgan investisiyalar dinamikasi, ularning tarkibiy tuzilmasi va mehnat unumdorligiga ta'siri kompleks tahlil qilinadi. Bu esa inson kapitaliga

sarflanayotgan resurslar va banklar faoliyati samaradorligi o'rtasidagi funksional bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi (2-jadval).

2-jadval. Tijorat banklarida inson kapitaliga investisiyalar va ularning samaradorlik indikatorlari¹

Yil	O'qitish xarajatlari (mlrd so'm)	Bir xodimga investisiya (ming so'm)	Treninglarda ishtirok (%)	Mehnat unumdorligi o'sishi (%)
2020	95	1218	42	4.5
2021	120	1463	48	5.2
2022	155	1782	55	6.1
2023	198	2150	61	6.9
2024	245	2525	68	7.6

2-jadval natijalari inson kapitaliga yo'naltirilgan investisiyalar va mehnat unumdorligi o'rtasida barqaror va funksional bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, xodimlarni o'qitishga sarflanayotgan mablag'lar hajmining ortishi va treninglarda ishtirok darajasining kengayishi mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarining izchil o'sishi bilan uyg'un ravishda kechayotgani kuzatiladi. Bu holat inson kapitaliga kiritilayotgan investisiyalar banklarda bilim va ko'nikmalar sifat jihatdan transformatsiyasini ta'minlab, ish jarayonlarining samaradorligini oshirayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, mazkur jarayonni faqat xarajatlarning ortishi bilan izohlash yetarli emas, balki inson kapitaliga investisiyalarning tarkibiy jihatdan maqsadli va samarali yo'naltirilayotganini ham inobatga olish lozim.

Natijada, inson kapitaliga investisiyalar bank xizmatlari sifatini oshirish, operasion jarayonlarni optimallashtirish va raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish orqali banklar faoliyati samaradorligiga ko'p qirrali ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa inson kapitalini banklar raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik omil sifatida baholash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu nuqtai nazardan, inson kapitali ko'rsatkichlari va banklar moliyaviy natijalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni empirik jihatdan chuqur tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur bog'liqlikni aniqlash inson kapitaliga yo'naltirilgan investisiyalarning banklar aktivlari rentabelligi, kapital samaradorligi va xizmatlar hajmi o'sishiga ta'sir mexanizmlarini ilmiy asosda ochib berish imkonini yaratadi. Shu maqsadda keyingi jadvalda inson kapitali ko'rsatkichlari va banklar moliyaviy natijalari o'rtasidagi korrelyasion bog'liqlik tahlil qilinadi (3-jadval).

3-jadval. Inson kapitali ko'rsatkichlari va banklar moliyaviy natijalari o'rtasidagi bog'liqlik (2024)²

Ko'rsatkich	ROA (%)	ROE (%)	Daromad o'sishi (%)	Mijozlar o'sishi (%)
Yuqori malaka darajasi	3.2	21.1	18.5	17
Raqamli ko'nikmalar yuqori	3.4	22.3	20.1	19
Inson kapitaliga investisiya yuqori	3.0	20.5	17.8	16

3-jadval natijalari inson kapitali ko'rsatkichlari va banklar moliyaviy samaradorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning barqaror va tizimli xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Xususan, xodimlarning malaka darajasi va raqamli kompetensiyalari yuqori bo'lgan banklarda aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE) hamda daromadlar o'sishi ko'rsatkichlarining yuqoriligi kuzatiladi. Bu inson kapitali banklar faoliyati samaradorligini ta'minlashda faqat qo'shimcha omil emas, balki asosiy iqtisodiy drayver sifatida namoyon bo'layotganini tasdiqlaydi.

Raqamli texnologiyalarni samarali o'zlashtirgan xodimlar bank xizmatlarini avtomatlashtirish, operasion jarayonlarni optimallashtirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish tezkorligini oshirish orqali banklar uchun qo'shimcha iqtisodiy qiymat yaratadi.

Shu bilan birga, inson kapitaliga investisiyalar darajasi yuqori bo'lgan banklarda moliyaviy ko'rsatkichlarning barqaror o'sishi inson kapitali va moliyaviy natijalar o'rtasidagi multiplikativ ta'sir mavjudligini ko'rsatadi.

1 Bank hisobotlari asosida tuzilgan.

2 Markaziy bank va tijorat banklari hisobotlari tahlili asosida tuzilgan.



Inson kapitali omillarining banklar raqobatbardoshligiga integral ta'sirini kompleks baholash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki inson kapitali tarkibiy elementlari – malaka, raqamli kompetensiyalar, innovasion salohiyat va korporativ madaniyat – o'zaro bog'liq holda banklar raqobatbardoshligini shakllantiradi. Shu maqsadda keyingi 4-jadvalda inson kapitali omillarining banklar raqobatbardoshligiga integral ta'siri baholanadi (4-jadval).

4-jadval. Inson kapitali omillarining banklar raqobatbardoshligiga integral ta'siri³

Omil	Ta'sir darajasi (%)
Xodimlar malakasi	85
Raqamli kompetensiyalar	82
O'qitish va rivojlantirish	80
Innovasion salohiyat	78
Korporativ madaniyat	75
Kadrlar barqarorligi	73

Olib borilgan kompleks tahlil natijalari inson kapitali tarkibiy elementlari — xodimlar malakasi, raqamli kompetensiyalar, innovasion salohiyat va korporativ madaniyat — banklar faoliyati samaradorligiga tizimli va o'zaro bog'liq holda ta'sir ko'rsatadi.

Xususan, inson kapitali sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanishi bank xizmatlari samaradorligining oshishi, operasion xarajatlarning optimallashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlarining jadallashtirish bilan uyg'un ravishda kechayotgani kuzatildi. Bu holat inson kapitali banklar faoliyatida qo'shimcha resurs emas, balki innovasion rivojlanishni ta'minlovchi asosiy iqtisodiy omil sifatida namoyon bo'layotganini ko'rsatadi.

Tahlillar inson kapitaliga yo'naltirilgan investisiyalar va banklar moliyaviy natijalari o'rtasida multiplikativ ta'sir mexanizmi mavjudligini ko'rsatdi.

Raqamli ko'nikmalarga ega xodimlar bank xizmatlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish va fintex yechimlarni samarali joriy etish orqali banklar uchun strategik ustunliklar yaratadi. Bu esa inson kapitali rivojlanishini raqamli transformatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, inson kapitali omillarining banklar raqobatbardoshligiga ta'sirini integral baholash natijalari ushbu omillarning sinergetik ta'sirini ham namoyon qildi. Ya'ni, inson kapitali tarkibiy elementlari alohida emas, balki o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida amal qiladi. Bu esa inson kapitali rivojlanishini banklar strategik boshqaruv tizimining markaziy elementi sifatida qarash lozimligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Umuman olganda, inson kapitali rivojlanishi tijorat banklari uchun barqaror raqobat ustunliklarini shakllantirish, va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim institusional asoslaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, inson kapitaliga yo'naltirilgan investisiyalar va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish banklar strategik rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari inson kapitali tijorat banklari raqobatbardoshligini ta'minlashda fundamental va hal qiluvchi strategik omil ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali sifatining oshishi bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, fintex texnologiyalarini samarali joriy etish va mijozlarga xizmat ko'rsatishning yangi formatlarini shakllantirishga xizmat qilayotgani aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy asoslangan va innovasion xarakterga ega takliflar ishlab chiqildi:

- tijorat banklarida inson kapitalini rivojlantirishni alohida HR funksiyasi emas, balki strategik boshqaruvning asosiy elementi sifatida qarash zarur.
- bank tizimida raqamli ko'nikmalarni tizimli ravishda rivojlantirish maqsadida maxsus korporativ o'quv markazlarini tashkil etish va ular orqali fintex, data analytics va AI yo'nalishlarida kadrlar tayyorlash zarur;
- banklarda inson kapitaliga sarflangan investisiyalar qaytimini baholash uchun maxsus KPI va indikatorlar tizimini ishlab chiqish lozim;
- tijorat banklarini doimiy o'rganuvchi tashkilotga aylantirish, ya'ni xodimlarning uzluksiz o'qishi, bilim almashinuvi va innovasion fikrlashini rag'batlantiruvchi korporativ muhitni shakllantirish zarur;


3 Эксперт баҳолаш ва аналитик моделлаштириш натижалари.

- raqamli transformatsiya jarayonlarini inson kapitali rivojlanishidan ajratilgan holda emas, balki o'zaro bog'liq strategik yo'nalish sifatida boshqarish maqsadga muvofiq;
- banklarda yuqori salohiyatli kadrlarni aniqlash, rivojlantirish va saqlab qolishga qaratilgan talent management tizimini joriy etish raqobat ustunliklarini ta'minlaydi;
- innovasion g'oyalarni qo'llab-quvvatlovchi, ochiq kommunikatsiya va jamoaviy ishlashga asoslangan korporativ madaniyatni shakllantirish inson kapitali samaradorligini oshiradi;
- HR-analitika va Big Data texnologiyalari asosida inson kapitali holatini doimiy monitoring qilish va qaror qabul qilish jarayonida ma'lumotlarga asoslangan yondashuvni qo'llash zarur.

Umuman olganda, inson kapitali tijorat banklari raqobatbardoshligini ta'minlashda an'anaviy resurslardan farqli ravishda dinamik, innovasion va yuqori qaytimli strategik aktiv sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, inson kapitaliga yo'naltirilgan investisiyalar va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish banklar uchun uzoq muddatli barqaror raqobat ustunliklarini shakllantirishning eng muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF–5992-son Farmoni. – Toshkent, 2020.
3. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
4. Schultz T.W. Investment in Human Capital. – American Economic Review, 1961.
5. Hanushek E., Woessmann L. The Knowledge Capital of Nations. – MIT Press, 2015.
6. Mincer J. Schooling, Experience, and Earnings. – Columbia University Press, 1974.
7. Barney J. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage. – Journal of Management, 1991.
8. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
9. Mahmudov N.M. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida inson kapitali. – Toshkent: Fan, 2020.
10. Toshmurodov D.T. Bank tizimida inson resurslarini boshqarish. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018.
11. Abdurakhmanova, M. "Digitization processes in libraries: problems and solutions." Science and innovation 2.B2 (2023): 368-372.
12. Azlarova A. Raqamli transformatsiya sharoitida banklarga raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari //Arxiv nauchnykh issledovaniy. – 2020.
13. World Bank. World Development Report: The Changing Nature of Work. – Washington DC, 2019.
14. OECD. Skills for a Digital World. – Paris: OECD Publishing, 2021.
15. International Monetary Fund (IMF). Digitalization and the Future of Banking. – Washington DC, 2022.
16. Asian Development Bank. Human Capital Development in Asia. – Manila, 2021.
17. World Bank. Digital Financial Services. – Washington DC, 2022.
18. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. yillik hisobot.
19. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Rasmiy statistik to'plamlar. – Toshkent, 2024.
20. Kapitalbank, Asaka bank, Ipoteka-bank, O'zmilliybank. Annual Financial Reports. – 2024.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100